



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



BADIIY KITOB O'QISH FOYDALIMI?

SHarifjonova Muhlisaxon Ahrorjon Qizi

Qo'qon davlat Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

yo'nalishi I-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada badiiy kitob o'qishning foydasi va to'g'ri yondashuv tamoyillari sharhlanadi. Kitoblar mazmuni va ta'siridan kelib chiqib, uch asosiy toifaga — zararli, neytral va foydali badiiy adabiyotlarga ajratiladi. Har bir toifa misollar bilan izohlanib, kitob tanlashda ruhiy, axloqiy va ma'rifiy mezonlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, shaxsiy rivojlanish, din, kasbiy o'sish hamda bolalar adabiyotining kitobxonlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada o'quvchining kitob o'qishga bo'lgan munosabati va niyatning to'g'ri bo'lishi ilmiy-nazariy hamda tarbiyaviy nuqtayi nazardan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Badiiy adabiyot, kitobxonlik, foydali ilm, shaxsiy rivojlanish, bolalar adabiyoti, ma'naviyat, zararli kontent, diniy badiiy asarlar, tarbiya, kitob tanlash mezonlari.*

ANNOTATION: *This article discusses the benefits, risks, and correct principles of approaching reading fiction books. Based on the content and impact of books, they are divided into three main categories — harmful, neutral, and beneficial fiction literature. Each category is explained with examples, highlighting the importance of mental, moral, and educational criteria when choosing books. Additionally, the influence of personal development, religion, professional growth, and children's literature on reading habits is analyzed. The article scientifically and theoretically justifies the reader's attitude towards reading and the importance of having the right intention from an educational perspective.*

Keywords: *Fiction literature, readership, useful knowledge, personal development, children's literature, spirituality, harmful content, religious fiction works, education, criteria for choosing books.*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье рассматриваются польза, опасности и принципы правильного подхода к чтению художественной литературы. Содержание и воздействие книг классифицируются на три основные категории — вредная, нейтральная и полезная художественная литература. Каждая категория поясняется примерами, показывается важность духовных, нравственных и образовательных критериев при выборе книги. Также анализируется влияние личностного развития, религии, профессионального роста и детской литературы на чтение. В статье обосновывается с научно-теоретической и воспитательной точек зрения правильное отношение и намерение читателя к чтению.*





Ключевые слова: *Художественная литература, чтение книг, полезные знания, личностное развитие, детская литература, духовность, вредный контент, религиозные художественные произведения, воспитание, критерии выбора книги.*

Asosiy qism: Bu albatta uni kim yozganiga va qanday yozganiga bog'liq. " Har qanaqa bo'lsa ham, kitob o'qish - inson uchun foydali" degan fikrga butunlay qarshiman. Yoshligida kerakli keraksiz ko'p kitoblarni o'qigan, kitob o'qishdan asosiy maqsad faqatgina vaqtni chog' o'tkazish emas, balki ilmni ziyoda qilish, Allohga yaqin bo'lish ekanini unutgan, hozirda esa gunoh-ma'siyatga to'la, ma'nisiz hayot kechirayotganlarni bilaman.

Demak, badiiy, umuman barcha kitoblarni uchga bo'lish mumkin:

1. Zararli

Ha, to'g'ri o'qidingiz. O'qish zarar bo'lgan yetarlicha ko'p kitoblar bor. Bularga qanday kitoblar kiradi

a) Dunyoni qora qalb ko'zi bilan ko'radigan, unda yaxshilik, adolat yo'q, unda umidsizlik, tushkunlik, baxtsizlik hukmron deb hisoblaydigan

b) Buzg'unchilikka targ'ib qiladigan

c) Halol yo'l bilan boy bo'lish mumkin emas deb hisoblaydigan

d) Yaxshi niyat bilan yozilgan bo'lsa-da, gunoh ishlarni ayb deya sanamay, uni bemalol targ'ib qiladigan

Xullas, miyani shayton yo'lga chorlovchi istalgan kitob. Bularga ba'zi misollar keltirsam:

"Mafiya sardori" " Tiriklayin ko'milgan yigit" a va b bandlarga

Jinoyatlar haqida ko'pchilik kitoblar a) bandga

c) bandga mos kitoblar xayolimga kelmadi Faqat Amerika va Turkiyaning ba'zi kino, seriallari keldi xolos)

D) bandga keyingi sonlarda

2. Foydali ham emas, zararli ham emas

Manashu yerda bahsning qiziq yeri boshlanadi men uchun.

Bunga qanday kitoblar kiradi?

- Siz shunchaki maza qiladigan, lekin, oxirida hech qanday foyda olmaydigan barcha kitoblar

Masalan, Garri Potter, Sherlok Xolms (agar ularning shariatdan uzoq xulqiga taqlid qilsaiz, bu zararlga aylanadi.

Keling, endi tasavvur qilaylik: Siz ularni ba'zi yomon xulqlariga taqlid qilmadiz, va shunchaki dam olish, qiziqarli olamga tushib o'zizni boshqacha his qilgiz keldi.

Marhamat! Bu odatiy ishlar qatoriga kiruvchi ish sanalib, xuddi ovqat yeyish, yurish, o'tirish kabi gunoh ham savob ham berilmaydi. Buni qilishdan hech kim qaytarmaydi. Albatta, agar bu farz amallarni qilishdan to'sayotgan va o'ta ko'p vaqtni olayotgan bo'lmasa... (Har bir ish yo ibodat, yo ma'siyat bo'ladi degan qarash ham bor) Faqat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



maslahatim, bu ishda ham ibodatni niyat qiling. Agar kun bo‘yi ishlab, miyangiz zo‘riqqan (agar haqiqatda shunday bo‘layotgan bo‘lsa), unga o‘zi uchun rohat bo‘lgan qiziqarli kontentni berish zarur bo‘lsa, bu tana haqqini ado qilish ibodat ko‘rinishiga olib chiqish mumkin va bu odatiy ishdan savob ishlashga aylanadi.

Lekin, yana bir jihat: Agar ham tana haqqini ado qilish, ham foydali ilm olish imkoni bo‘lsachi? Axir, ilm olish savobi o‘ta ulug‘ emasmi?

"Badiiy kitob o‘qib ham ilm olish mumkinmi" deysizmi?

Ha, foydali ilm beradigan, juda qiziqarli badiiy kitoblar juda ko‘p.

Ham qiziqarli ham foydali badiiy kitoblar

Bunday kitoblar yetarlicha ko‘p. Albatta, bu faqatgina din bilan chegaralanib qolmaydi.

Bunda asosiy prinsip: siz qaysi sohada bo‘lsa ham boshqalar va o‘zingiz uchun qandaydir foydali fikr, ibrat, xulosa, idea yoki ma‘lumot olsangiz - manashu foydali ilm olish bo‘ladi.

"Tolibiga ilmga hatto dengizdagi baliqlar ham istig‘for aytadi" Hadis, Riyozus Solihiyn

"Ilmni hatto Chin(Xitoy) dan bo‘lsa ham ol" Hadis

Endi turli sohalaridagi foydali badiiy kitoblarga misollar keltirsak:

1. Din

Islomiy badiiy kitoblarni ichida xohlasangiz sarguzasht, xohlasangiz urush, xohlasangiz oilaviy va xohlasangiz bolalar adabiyotini topasiz.

Ularga misollar:

"Saodat asri qissalari"

Payg‘ambarimiz s.a.v ning hayotlari haqida. .

Men eng qiziqarli deb hisoblagan, ba‘zida uyquni qochiradigan darajada jo‘shqin, ba‘zida yig‘latadigan darajada g‘amli (ayniqsa, audiokitobi), lekin oxirigacha ibratli va foydali -

(Islomning zabardast yozuvchisi Ahmad Lutfi qozonchining "Bir vijdon uyg‘onur" "O‘gay ona" "Umar ibn Hattob" kabi kitoblari ham tavsiya etilishga loyiq bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilingan)

"Imomning maniken qizi"

Sizga sarguzasht kerakmi? Yo bola tarbiyasi haqida foydali ma‘lumot olmoqchimisiz? Yoki Qur‘on farzandning xavf-xatarga to‘la kelajak hayotida unga qanchalik yordam berishini bilmoqchimisiz?

Unda bu kitob ayni siz uchun.

"Ishqqa oid 40 qoida"

Tasavvuf ... Rumi va u hazratning ustozlarining hayoti... Allohga oshiq qalb egalarining insonni oshufta qiladigan ibratli so‘zlari...

Bu kitobni o‘qiganizda hozirgi hayotni unutgandek bo‘lasiz. Barchasini qo‘yib, xuddi ulardek bo‘lingiz keladi.

Bu kitobdagi Rumi va Shamz Tabreziyning uchrashuv sahnasi men uchun har qanday romantik sahnadan ta‘sirli "Sohilsiz dengiz"

Imom Buxoriyning hayotlari haqida.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Taqvodor va zakiiy olimning onasi qanday bo'lishi kerakligini bilmoqchilar tolibi ilmning xulqi va odobi qanday bo'lishi, ilm yo'lida qanday fidoyilik qilish mumkinligi haqida bilmoqchilar uchun ajoyib kitob "Savdogarlar ustozlari yoxud omad kaliti" Abdulloh ibn Muborak hazratlari haqida.

Hayotimni o'zgartirgan kitob (Allohning izni bilan). Bu kitob nafaqat tijorat sohasiga kirmoqchilar, balki bola tarbiyasi , bolaga ilm berish, ilm olish uchun zaxmat chekish va vaqtini qurbon qilish, mo'minning xulqi, kun tartibi... xullas bundan tashqari ko'pgina ibratlarga to'la barakatli kitob...

Bu va bunday kitoblarni Hilol nashrdan, uning elektron dasturi Hilol ebook, Qamar , Shams kabi nashriyotlardan topishingiz mumkin. Qiziqib ko'rsangiz, yana boshqa ajoyib kitoblarni topasiz.

Ham qiziqarli ham foydali badiiy kitoblar

2. Shaxsiy rivojlanish va xislatlar orttirish

Bunday kitoblar badiiy uslubda yozilgan bo'lsa-da, sizga maqsaddan chekinmaslikni, sinovlarga bardosh bera olishni, hayot qiyinchiliklarida o'zini qanday tutishni, insonlar bilan munosabatni, xullas sizning shaxsiyatingizda qandaydir yaxshilanishga sabab bo'ladigan kitoblar. Bundaylarga misollar

"Alkimyogar"

Santayago ismli bolaning o'z maqsadiga qanday erishishi haqida. G'arb adabiyoti bo'lsa-da, o'qiganimga afsuslanmayman. Juda qiziqarli uslubda yozilgan, va bir necha ibratlar olganman

Bunday kitoblar ko'p, bitta misol menimcha yetarli.

3. Karyera - o'z kasbingizga xos badiiy kitoblar

Bu, masalan, O'qituvchilar uchun mashhur ustozning hayoti haqida, dasturchilar uchun qaysidir kuchli dasturchi haqida va h.k

Biznes yo'nalishidagi kitoblardan "Elon Musk" " Genri Ford : mening hayotim" "Stiv Jobs" kabi kitoblarni misol keltirish mumkin. Ular avtobiografiya bo'lsa-da, roman emas, qissa ko'rinishida yozilgan deb aytish mumkin.

Yana boshqa sohalarda ham foydali badiiy kitob topish va bu ro'yhatni yana kengaytirish mumkin, lekin menimcha umumiy prinsipni tushundingiz: Siz undan maza qilish bilan birgalikda, foydali bilim ham olishingiz kerak. (Va bu diniy va diniy bo'lmagan ham bo'lishi mumkin). Niyatni shu qilsangiz, va ilm olish savobini umid qilib foydali kitoblarni qidirsangiz, Alloh siz uchun siz kutmagan ajoyib kitoblarni yo'liqtirib qo'yadi inshaAllah.

Bolalar adabiyoti.

Ko'pchiligimiz bolalik yoshidan o'tgan bo'lishimiz mumkin. Lekin barchamizni yo uka singlimiz, yo jiyanimiz, yo farzandimiz bor va ularni kitob o'qish jarayoniga befarq bo'lolmaymiz.

Keling bunda ba'zi holatlarga qarab chiqamiz.

1. 10 yoshdan kattalar uchun O'zbekistondagi bolalar adabiyoti





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ularda keng tarqalgan janrlar bu - sarguzasht va fantastik roman va qissalar. "Sariq devni minib" "Suv ostida 80ming kilometr" kabi

Savol tug‘iladi:

Ularni o‘qisinmi?

Agar shunga javob berishim kerak bo‘lganida bunday javob berardim:

-Ha, qiziqishsa o‘qishsin, shu ularni boshida qiziqтира olsa, shulardan boshlashsin. Aslida, qanday kitobdan boshlashlarining qizig‘i yo‘q, muhimi - qiziqishning uyg‘onishi, uni uyg‘ota olish, muhimi - boshlab olish. Bu - sarguzasht bo‘ladimi, dunyoviy roman bo‘ladimi, ilmiy fantastik bo‘ladimi, farqi yo‘q. Biror kitobni qiziqib o‘qishsa, keyin asta-asta miyalari rivojlanib, kitobxonlik madaniyatlari rivojlanib, "jiddiyroq" kitoblar o‘qiy boshlashadi.

- Ilmga, kitobga muhabbat yarata olish bolaning kelajagi uchun eng ajoyib sovg‘alardan bo‘ladi. Mashxur xususiy maktablar asoschisi aytganidek: "Bolada eng muhimi ilmga muhabbat yarata olish, shu bo‘lsa uning o‘zi katta natijalarga MUSTAQIL erisha oladi"

Kitob o‘qishga qiziqtirish uchun eng yaxshi usul, tarbiya beruvchini o‘zi ham kitob o‘qishi kerakligi, bundan tashqari unga doimiy ravishda "yaltiroq" kitoblar sovg‘a qilishi, uyda ilm muhitini yaratishi, kitoblarni qiziqarli qilib tasvirlab berishi kabilarni o‘z ichiga olishini eslataman...

Xulosa: Siz kimgadir ta’sir o‘tkaza olar ekansiz (uka, singil, jivan, o‘quvchi) bu imkoniyatni qo‘ldan chiqarmang. Siz qilishingiz kerak bo‘lgan eng katta ish bu: Unga ilk kattaroq kitobni mustaqil o‘qittira olish, bu diniy qissa yoki dunyoviy roman bo‘lishi mumkin. Eng muhimi u bu jarayonni mustaqil boshidan kechira olishi. Aynan manashu ish uni kelgusida juda ko‘plab kitoblarni o‘zi MUSTAQIL, sevib o‘qishiga olib keladi. Siz esa bunga sabab bo‘lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Nuriddin Ismoilov — "Mafia sardori" 2008, Yangi asr avlodi
- 2.Olimjon Hayit — "Tiriklayin ko‘milgan yigit" - Toshkent, 2009
- 3.Ahmad Lutfiy Qozonchi — "Saodat asr qissalari"
4. Amina Shenliko‘g‘lu — "Imomning maniken qizi" 2021, Azon kitoblari
- 5.Elin Shafaq — "Ishqqa oid 40 qoida" 2019, Mashhur press
- 6.A.M. Tursun — "Sohilsiz dengiz" 2021, Hilol nashr
- 7.Ahadquli Xolmuhammad o‘g‘li — "Savdogarlar ustozlari" 2021, Ilm ziyo zakovat
- 8.Paulo Koelo — "Alkimyogar" 2013, Yangi asr avlodi
- 9.X. To‘xtaboyev — "Sariq devni minib" 2013, Yangi asr avlodi
- 10.Jyul Vern — "Suv ostida 80 kun" 2014, Sharq